



MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI FAOLIYATIDA HOKIMIYAT BO'LINISH PRINSIPINING TA'MINLANISHI

Shukurov Dilshod Shokir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari
huquqi yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6596284>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10- may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 30- may 2022

KALIT SO'ZLAR

*mahalliy davlat hokimiyati,
hokimiyat bo'linish
prinsipi, hokimlar,
mahalliy vakillik organlari,
vakolatlar reyestri.*

ANNOTATSIYA

Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida hokimiyat bo'linish prinsipining ta'minlanishi huquqiy demokratik davlatning rivojlanish omillaridan biri sanladi. Mazkur omil qanchalik samarali amaliyotga joriy qilinsa, shunchalik demokratiya keng va chuqur ildiz otadi. Maqolada mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida hokimiyat bo'linish prinsipining ta'minlanishi huquqiy asoslari atroflicha tahlil qilingan hamda qonunchilik hujjatlari asosida asoslab berilgan. Unda ilgari surilgan taklif va tavsiyalardan qonunchilik hujjatarini takomillashtirishda, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida foydalanish mumkin.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha ulkan va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma'lumotlar bazalari yaratildi. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun veb-saytlar yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish natijasida

tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishning tartib-taomillari to'rt martaga, ro'yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqaga qadar qisqartirildi.

Ammo ayrim kamchiliklar iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga ko'ra



O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib berdi.

O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo'nalishi belgilab berildi. Mazkur asosiy yo'nalishlarning to'rtinchisi aynan vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish masalasiga bag'ishlangan. Bu yo'nalishda:

- respublika davlat boshqaruvi organlari vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, viloyatdan tuman (shahar) davlat hokimiyati organlariga o'tkazishni nazarda tutgan holda, davlat boshqaruvini bosqichma-bosqich nomarkazlashtirish, davlat boshqaruvining turli darajadagi o'zaro funktsiya va vakolatlarini, xususan, umumdavlat miqyosidagi strategik masalalarni respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida qoldirish, shuningdek, ular tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilgan vakolatlardan lozim darajada foydalanayotganligi ustidan nazorat qilishni aniq chegaralash;

- hokimning mahalliy hokimiyat vakillik organining rahbari sifatidagi maqomini unda ijro etuvchi hokimiyat rahbari maqomini saqlagan va xalq deputatlari Kengashlarining kotibiyatini tuzgan holda qayta ko'rib chiqish orqali mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi tamoyilining amaliy ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining, ayniqsa, xalq deputatlari Kengashlarining ijro etuvchi hokimiyat organlari hududiy bo'linmalari faoliyatini nazorat qilish bo'yicha roli va mas'uliyatini oshirish;

- tegishli vakolatlarini hokimga bosqichma-bosqich o'tkazish orqali hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbar kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kuchaytirish;

- kelgusida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va hokimlar faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga qaratilgan hokimlarni saylash tartibini joriy etish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb masalalarini hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini va faoliyat samaradorligini oshirish kabi eng dolzarb masalalar o'z yechimini topgan.

Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida hokimiyat bo'linish prinsipining ta'minlanishi, eng avvalo, hokimlarning ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo'yish bilan bevosita bog'liq. Negaki hokim vakolatlari alohida ajratib olingandagina mahalliy vakillik organlari tomonidan hokim faoliyatini nazorat qilish huquqiy mexanizmi samarali amalga oshadi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Keyingi paytda yurtimizda xalq deputatlari Kengashlarining roli, xalq noiblarining vakolatlari tubdan oshirildi. Siyosiy partiyalarning mahalliy hokimiyat idoralarini shakllantirish borasidagi vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirildi, deputatlik nazorati esa mustahkamlandi. Biroq, ochiq tan olishimiz lozim, hokimlarning ham mahalliy Kengashlarga, ham ijro hokimiyatiga rahbarlik qilishi demokratik prinsiplarga mos keladi, deb bo'lmaydi. Hammaga ma'lum, hokimlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va



dolzarb masalalari yuzasidan mahalliy Kengashlarga hisobotlar taqdim etadi. Kengashlar esa o'z o'rnida tegishli qarorlar qabul qiladi. Endi, aytinglar, hisobotini o'zi rahbarlik qilib kelayotgan mahalliy Kengashga taqdim qilishi va tasdiqlatishi, o'zining faoliyatiga o'zi baho berishi to'g'rimi? Bu tizim hokimlar va mahalliy Kengashlar vazifalarini samarali bajarishiga salbiy ta'sir etayotganini zamonning o'zi ko'rsatmoqda. Biz kelgusida bu masala bo'yicha qonunga asoslangan to'g'ri yechim topamiz", - degan mazmundagi fikrlari fikrimizning yaqqol tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimizning mazkur fikrlaridan so'ng hokimlarning mahalliy Kengashlarga rahbarlik qilish masalasi Oliy Majlis palatalari tomonidan ham demokratik tamoyillarga mos kelmasligi e'tirof etildi. Buning amaliy tasdig'i o'laroq, 2019-yil 3-aprelda 2437-III-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati kengashining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qo'shma qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, viloyat, tuman, shahar hokimlarining xalq deputatlari Kengashi raisi sifatidagi maqomini bekor qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ya'ni hokimlarning mahalliy Kengashlarga raislik qilish tartibini bekor qilish nazariy jihatdan o'zining amaliy faoliyatiga ko'chdi. Bu dastur orqali mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida hokimiyat bo'linish prinsipining ta'minlanishi to'laroq ma'noda ro'yobga chiqishiga asos yaratildi. Biroq bu jarayon birdaniga va shoshma-shosharlik bilan amalga oshadigan jarayon emas. Shu sababli mazkur jarayonni amalga oshirish uchun

alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, unda quyidagi tashkiliy jihatlar:

- mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyati, ularga raislik qiluvchi nomzodlarni ilgari surish va saylash tartibi, ularning maqomi va vakolatlari, deputatlarning doimiy asosda faoliyat olib borishini tashkil etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar amaliyotini o'rganish;

- mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini takomillashtirishga oid mavzularda olib borilgan fundamental va amaliy-ilmiy tadqiqotlarni o'rganish;

- hokimning xalq deputatlari Kengashi raisi sifatidagi maqomi bekor qilinishi munosabati bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan masalalarni joylarga chiqib o'rganish (Kengashning faoliyatini qayta tashkil etish, binoga joylashtirish, shtat birliklariga ehtiyoj va boshqa masalalar), natijasi bo'yicha aniq takliflarni o'z ichiga olgan ma'lumotnoma tayyorlash va boshqalar amalga oshirilishi zarur.

Viloyat, tuman va shahar hokimlarining mahalliy Kengashlarga raislik qilish tartibini bekor qilish bo'yicha dasturga ko'ra, qonun hujjatlarini muvofiqlashtirishga doir quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- amaldagi qonun hujjatlarini to'liq inventarizatsiya qilish;

- hokimning xalq deputatlari Kengashi raisi sifatidagi maqomi bekor qilinishi yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

- O'rganishlar va inventarizatsiya natijalaridan kelib chiqib, hokimning xalq deputatlari Kengashi raisi sifatidagi maqomini bekor qilish, ularga mahalliy ijro organidan alohida ravishda rahbarlik qiluvchi raislar nomzodini ko'rsatish va saylash tartibi, Kengashlarning mahalliy ijro



organlari, davlat boshqaruvi organlari hududiy bo'linmalari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vakolat doirasini kengaytirish masalalarini ko'rib chiqish va qonunchilikka tegishli takliflar tayyorlash;

- qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tayyorlangan takliflarning mutaxassis va ekspertlar ishtirokidagi muhokamasini tashkil etish;

- "Hokimning xalq deputatlari Kengashi raisi sifatidagi maqomini bekor qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va ayrim qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish .

Bundan tashqari, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Mazkur strategiyaning birinchi yo'nalishi inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish masalasini o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishning maqsadlaridan biri sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirish jarayoni tilga olingan. Mazkur maqsadga joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish; mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik

tamoyillar asosida shakllantirish, shu jumladan hokimlarni saylash tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish; mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hududiy ijro organlarining shtat birligi va tuzilmalarini belgilash amaliyotini bosqichma-bosqich kengaytirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar bo'yicha "vakolatlar reyestri"ni shakllantirish kabi vazifalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin .

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratish uchun :

a) tuman va shahar hokimi lavozimiga nomzod ilgari surilishi tartibini qayta ko'rib chiqish;

b) hokimlikka nomzod mahalliy Kengashda hududni rivojlantirish bo'yicha o'z dasturini himoya qilib, lavozimga tasdiqlanishi tartibini joriy etish;

d) mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, mahalliy Kengashlarning Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo'linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash;

e) hududlarda amalga oshiriladigan davlat organlarining vazifalari bo'yicha "vakolatlar reyestri"ni shakllantirish, takrorlanadigan 500 dan ortiq funksiyalarni maqbullashtirish;

f) mahalliy hokimliklarning har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish zarur.

Mahalliy Kengashlar hamda hokimlarning vakolatlarini aniq belgilashga



oid qonuniy asoslarni yaratish orqali alohida qonunlarni qabul qilish uchun :

- a) mahalliy Kengashlar hamda hokimlarning vakolatlarini aniq belgilash;
- b) mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalari (bo'linmalari) bilan o'zaro munosabatlarining aniq mexanizmlarini belgilash;
- d) hokimliklar va mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar turlarini aniqlashtirish lozim.

Mahalliy boshqaruv faoliyatiga axborot-texnologiyalarini keng joriy qilish uchun :

- a) hududlar kesimida tizimlashtiriluvchi 40 dan ortiq sohalar bo'yicha ma'lumotlarni aniqlashtirish;
- b) ushbu ma'lumotlarni jamlovchi tahliliy geoportallarni ishga tushirish choralari ko'rish;
- d) "Raqamli xalq deputatlari Kengashi" loyihasi doirasida mahalliy vakillik

organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

- e) mahalliy Kengashlarning yig'ilishlarini o'tkazishda ortiqcha sansalorliklarni bartaraf etish;
 - f) mahalliy Kengashlar tomonidan hududiy ijro organlarini nazorat qilish doirasidagi hisobotlar, qarorlar, so'rovlar va boshqa hujjatlar hamda ularning bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilib borish amaliyotini joriy etish nazarda tutiladi.
- Shunday qilib, qonun hujjatlarini tahlil qilgan holda xulosa qilishimiz mumkinki, mahalliy davlat hokimiyati faoliyatida hokimiyat bo'linish prinsipining ta'minlanishi hokim vakolatlarining xalq deputatlari Kengashining vakolatlaridan alohida ajratib olish, amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda hokim va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlariga doir alohida yangi qonunlar ishlab chiqish orqali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 8-sentabrdagi Farmoni PF-5185
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (23-dekabr 2017-yil). – T. O'zbekiston, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati kengashining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 3-apreldagi 2437-III-sonli qo'shma qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga 1-ilova // lex.uz